

Rasmlar qaysi ertaklardan olingan? Bu ertaklardagi umumiy qahramon haqida nima deya olasiz? Unga ta'rif bering.



Yo'lbars bilan tulki

Tojik xalq ertagi



Bir kuni Tulki qalin o'rmon ichiga kiribdi. To'satdan uning ro'parasidan Yo'lbars chiqib qolibdi.

Tulki qo'rqib ketib, qocha boshlabdi. Yo'lbars esa uni quvibdi. Yo'lning o'rtasida jarlik bor ekan. Tulki yugurishdan to'xtabdi-da, o'sha yerda turgan tosh ustiga chiqib olib yig'lay boshlabdi.

Yo'lbars hayron bo'lib so'rabdi:

– Nega yig'layapsan, Tulkivoy?

– Men sizni ko'rishim bilan darrov otangiz yodingga tushib ketdi. Ular shunday epchil edilarki, hatto eng katta jarliklardan ham sakrab o'ta olar edilar.

Endi bo'lsa bunaqangi epchillikni menga ko'rish qayda, deysiz?

Yo'lbars Tulkingning oldida maqtangisi kelib, jordan sakrab o'tmoqchi bo'libdi-da, jarga tushib ketib, til tortmay o'libdi.

– O'zim ham biluvdim-a, hali otangizga yetishingizga ancha bor! – debdi ayyor Tulki va o'z yo'liga ravona bo'libdi.



1. Tulki nima uchun qocha boshladi?
2. Sizningcha, Tulki nega tosh ustiga chiqib yig'lay boshladi?
3. Yo'lbars nima uchun jordan sakradi?
4. Ertakning qaysi qismi siz uchun qiziq? Fikringizni izohlang.



5. Siz yo'lbarsni nimaga o'xshatasiz? Tulkini-chi?
6. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
7. Agar siz ertakchi bo'lganingizda bu ertagingiz qanday yakun topgan bo'lar edi?
8. Yo'lbars qatnashgan yana qanday ertaklar va multfilmlarni bilasiz?



epchil – ishni tez bajaradigan, chaqqon harakatli
ravona bo'lish – ketish, jo'nash
darrov – darhol, qisqa vaqt ichida



Ertak qahramonlariga ta'rif bering.



Berilgan so'zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan hayvon nomlarini yozib, zanjirni davom ettiring.

Yo'lbars



sa'va



a...



Tulki



it



t...





Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering.
 "Mening sevimli ertak qahramonim"
 mavzusida taqdimot tayyorlang.